ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

*(2021/2022 o‘quv yili uchun)*



# ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI

Zamonaviy dunyo innovatsiyalar davri boʻlib, unda tegishli ta'limsiz karyera qurish, ish topish va katta yutuqlarga erishish dargumondir. Buni esa yoshlar juda yaxshi tushunishadi: bugungi kunda butun dunyo universitetlarida bir milliarddan ziyod talaba ta'lim olmoqda. Bu raqam Oʻzbekiston talabalarini ham oʻz ichiga oladi.

Oʻzbekistonda har bir kishiga jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, e'tiqodi, dinga boʻlgan munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-hunar turi, ijtimoiy mavqei, yashash joyi, respublika hududida istiqomat qilish davomiyligidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqi kafolatlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy oʻquv yurtlari oʻrtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish boʻyicha raqobat yoʻq. Shu sababli, **xususiy oliygohlarga ham kerakli mutaxassislarni tayyorlash boʻyicha davlat buyurtmasi berish tizimi yoʻlga qoʻyiladi**. Yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga oʻquv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi. (https://president.uz/oz/lists/view/4050)

Oʻzbekiston Respublikasida oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi boʻlib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq fanlarning dasturlari va oʻquv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minoti boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga boʻysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

## Oliy ta’lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

***Bakalavriat*** -oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir. Dastur yakunida davlat komissiyasi tomonidan bitiruvchilarga o‘qish yo‘nalishi bo‘yicha “bakalavr” malakasi beriladi va tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

***Magistratura*** -tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir. O‘qishni tugatgandan so‘ng bitiruvchilar ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha diplom va magistr darajasiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta’lim tashkilotlarining turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ularga tenglashtirilgan oliy o‘quv yurtlari).

***Universitet*** – eng keng mutaxassisliklar bo‘yicha oliy yoki oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturlarini taklif qiladi.

***Akademiya*** – alohidagi ilmiy sohalar va yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va institutdan keyingi ta’limning pedagogik dasturlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

***Institut*** – aniq bilim sohasi doirasida ma’lum bir yo‘nalishlar va darajalar bo‘yicha oliy yoki oliy ta’limdan keyingi ta’limning o‘quv dasturlarini amalga oshirish sohasida faoliyat yuritadi.



# ANDIJON VILOYATIDA OLIY TA'LIM

## Oliy ta'lim tashkilotlari soni

*(o'quv yili boshiga, birlik)*




2021/2022 oquv yilida Andijon viloyatida oliy ta'lim tashkilotlari soni 8 tani tashkil etdi. O'tgan 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan ular soni 2 taga yoki 33,3 % ga ortgan. Viloyatda 3 ta universitet va 5 ta institut faoliyat ko'rsatmoqda






## Oliy ta’lim tashkilotlarining talabalari soni

*(o‘quv yili boshiga, ming kishi)*






Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2021/2022 o‘quv yilida 2017/2018 o‘quv yiliga nisbatan 2,5 martaga oshgan.

## Oliy ta’lim tashkilotlarida bitiruvchilari soni

*(o‘quv yili boshiga, ming kishi)*






## Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul natijalari

*(o'quv yili boshiga, ming kishi)*




2021/2022 o'quv yilida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarga jami 156,4 ming nafar abiturientlar ariza topshirgan. Ulardan 10,4 ming nafari yoki 6,6% talabalikga qabul qilindi.

O'tgan o'quv yili bilan taqqoslaganda qabul qilingan talabalar soni 2,5 ming nafarga yoki 31,6 % ga ortgan.



## Oliy ta’lim tashkilotlariga qabul natijalari, shahar va tumanlar hamda ta’lim bosqichlari kesimida

*(o‘quv yili boshiga, ming kishi)*

| Shahar va tumanlar | Topshirilgan arizalar 2021/2022-y. | Topshirilgan arizalar 2020/2021-y. | Qabul qilingan talabalar 2021/2022-y. | Qabul qilingan talabalar 2020/2021-y. |
|---|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 156,4 | 177,6 | 10,4 | 7,9 |
| Andijon shahar | 148,3 | 170,6 | 8,4 | 6,6 |
| Andijon tuman | 8,1 | 7,0 | 2,0 | 1,3 |

2021/2022 o‘quv yilida Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan 8 ta oliy ta’lim tashkilotlariga kirish ucun jami 156,4 ming nafar abiturientlar tomonidan arizalar topshirilgan. Ulardan 90,7 ming nafari (58,0%) ta’limning kunduzgi bo‘limiga va qolgan 65,7 ming nafari (42,0%) sirtqi bo‘limiga kirish uchun ariza bergan.

## Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi bo'yucha qabul natijalari

*(o'quv yili boshiga, ming kishi)*




2021/2022 o'quv yilida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichiga jami 153,1 ming nafar abiturient ariza topshirgan. Ulardan 9,6 ming nafari (6,3%) talabalikga qabul qilindi.

Bakalavriat bosqichining kunduzgi bo'limiga 7,1 ming nafar va sirtqi bo'limiga 2,5 talabalar qabul qilindi.

## Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichi bo'yicha qabul natijalari,

*(o'quv yili boshiga, ming kishi)*




2021/2022 o'quv yilida Andijon viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichiga jami 3,2 ming nafar bakalavrlar ariza topshirgan. Ulardan 0,8 ming nafari (25,6%) talabalikga qabul qilindi.

Magistratura bosqichida abiturienlarning barchasi ta'limning kunduzgi bo'limiga qabul qilindi.

## Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul natijalari, ta'lim bosqichlari kesimida

*(2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)*









Oliy ta'lim taskilotlarining bakalavriat bosqichiga 2021/2022 o'quv yilida jami 153,1 ming nafar abitiurienlardan ariza qabul qilingan bo'lib, ulardan 9,6 ming nafari talabalikga qabul qilingan. 2017/2018 – o'quv yili bilan taqqoslaganda ariza topshirgan abiturienlar soni 74,4 ming nafarga, hamda qabul qilingan talabalar soni 4,9 ming martaga ortgan

## Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichiga qabul qilish natijalari

*(o'quv yili boshiga, ming kishi)*




## Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichiga qabul qilish natijalari

*(o'quv yili boshiga, ming kishi)*



## Oliy ta’lim tashkilotlarining talabalari soni

*(2021/2022 o‘quv yili boshiga, ming kishi)*



| | Jami talabalar | Davlat granti o‘yicha o‘qiyotgan talabalar | Davlat granti bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar sonining jami taabalarga nisbati, % |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 47,6 | 6,6 | 13,9 |
| Andijon shahar | 41,6 | 5,6 | 13,5 |
| Andijon tumani | 6,0 | 1,0 | 16,7 |



**Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan 8 ta oliy ta’lim tashkilotlarida 2021/2022- o‘quv yili boshida jami talabalar soni 47,6 ming nafarni tashkil etdi. Jami talabalarning umummiy sonidan 6,6 ming nafari yoki 13,9 % davlat granti bo‘yicha ta’lim oladilar.**

**O‘tgan 2020/2021- o‘quv yili bilan taqqoslaganda davlat granti bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar soni 2,0 ming nafarga yoki 43,5 % ga ortganlini qayd etish mumkin.**

## Oliy ta'lim tashkilotlaridagi talabalarning ta'lim turlari bo'yicha soni

*(2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)*



Jami talabalar - 47,6

Kunduzgi bo'lim - 32,0 → 67,2

Sirtqi bo'lim - 15,6 → 32,8

Andijon viloyati Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan jami 47,6 ming nafar talabalardan 32,0 ming yoki 67,2 % talimning kunduzgi bo'limida, qolgan 15,6 ming nafari yoki 32,8 % ta'limning sirtqi bo'limida tahsil olmoqdalar.

| Sirtqi bo'lim | | Kunduzgi bo'lim |
|---|---|---|
| 15,6 | 2021/2022- y | 32,0 |
| 6,3 | 2020/2021- y | 24,6 |
| 5,1 | 2019/2020- y | 20,9 |
| 3,1 | 2018/2019- y | 18,6 |
| 0,3 | 2017/2018- y | 18,9 |

## Oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni, ta'lim turlari va bosqichlari kesimida

*(2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)*







**Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 8 ta oliy ta'lim tashkilotlarida joriy o'quv yili boshida jami talabalar soni 47,6 ming nafardan iborat bo'lib, ularning 26,9 ming nafari yoki 88,8 % Andijon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan 7 ta oliy ta'lim tashkilotlarida va 3,4 ming nafari Andijon tumanidagi tashkilotda ta'lim oladilar.**



## Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining gender taqsimoti,
*(2021/2022- o‘quv yili boshiga, ming kishi)*



| Ayollar | | Erkaklar |
|---|---|---|
| 23,2 | Andijon viloyati | 24,4 |
| 21,4 | Andijon shahar | 20,2 |
| 1,8 | Andijon tumani | 4,2 |

Andijon viloyatida 2021/2022 o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlaridagi jami 47,6 ming nafar talabalardan 23,2 ming nafari (48,7 %) ni ayollar tashkil etadi. Jami ayollarning 15,9 ming nafari ta’limning kunduzgi bo‘limida, qolgan 7,3 ming nafari sirtqi bo‘limda bilim olmoqdalar.

O‘tgan o‘quv yili bilan taqqoslaganda ayollar soni 8,6 ming nafarga yoki 58,9 % ga ortgan.

## Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining ta'lim bosqichlari kesimida gender taqsimoti

*(2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)*

### Bakalavriat bosqichi

| | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|
| Andijon viloyati | 23,4 | 22,5 |
| Andijon shahar | 19,4 | 20,8 |
| Andijon tumani | 4,0 | 1,7 |

Andijon viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavr bosqichida tahsil olayotgan jami 45,9 ming nafar talabadan 22,5 ming nafari yoki 49,0 % ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

Magistratura bosqichida ta'hsil olayotgan jami 1,7 ming nafar talabalardan 0,7 ming nafari yoki 41,2 % ayollardan iborat.

### Magistratura bosqichi

| | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|
| Andijon viloyati | 1,0 | 0,7 |
| Andijon shahar | 0,8 | 0,6 |
| Andijon tumani | 0,2 | 0,1 |

## Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ta’lim bosqichlari kesimida gender taqsimoti

*(2021/2022 o‘quv yili boshiga, ming kishi)*









Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ayollarni oliy ta’lim bilan qamroviga alohida e’tibor qaratilib, ularga qator imtiyozlar berilmoqda.

2021/2022 o‘quv yili boshida oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan jami 47,6 ming nafar talabalardan qizlar soni 23,2 ming nafarni yoki 48,7 % ni tashkil etgan. Ular soni 2017/2018 o‘quv yilidagi talaba qizlar bilan taqqoslaganda 15,4 ming nafarga yoki 3,0 martaga ortganligini kuzatish mumkin

## Oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriat bosqichidagi talabalarining ta’lim sohalari bo‘yicha taqsimoti

*(2021/2022 o‘quv yili boshiga, ming kishi)*

Ishlab chiqarish texnika sohasi
**4,9**

Qishloq va suv xo‘jaligi
**4,3**

Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq
**3,9**



Soliqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
**6,7**

Gumanitar soha
**24,7**

Xizmatlar sohasi
**1,4**

Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichida ta’lim olayotgan jami 45,9 ming nafar talabalardan 24,7 ming nafari yoki 53,8 % Gumanitar fanlar sohasi yo‘nalishidagi talabalar bo‘lib ular eng yuqori ko‘rsatkichni, Xizmatlat sohasi yo‘nalishidagi talabalar soni jami 1,4 ming nafar yoki 3,1 % ni tashkil etgan holda eng past ko‘rsatkichni qayd etdilar.

## Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimoti

*(2021/2022 -o'quv yili boshiga, ming kishi)*




Andijon viloyatida 2021/2022- o'quv yili boshida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarida jami 47,6 ming nafar talaba tahsil olayotgan bo'lib, ulardan 7,0 ming nafari 19 yoshli talabalar hissasiga tog'ri kelgan holda eng yuqori, hamda 0,5 ming nafari 17 va undan kichik yoshli talabalardan iborat bo'lib eng past ko'rsatkichni qayd etdilar.

## Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimoti

*(2021/2022 -o‘quv yili boshiga, ming kishi)*

| | |
|---|---|
| O‘zbek tili | 41,6 |
| Rus tili | 5,5 |
| Qirg‘iz tili | 0,1 |
| Ingliz‘ tili | 0,4 |



Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olayotgan talabalar asosan 4 xil tillarda mashg‘ulot olib boradilar. Jumladan: O‘zbek tilida 41,6 ming nafar yoki (87,4%) , rus tilida 5,5 ming nafar (11,6 %), qirg‘iz tilida 0,1 ming nafar (0,2 %) va ingliz tilida 0,4 ming nafar (0,8 %) talabalar ta’lim oladilar.

| 2021/2022- y | 2020/2021- y |
|---|---|
| O‘zbek – 41,6 | O‘zbek – 26,3 |
| Rus – 5,5 | Rus – 4,0 |
| Qirg‘iz – 0,1 | Qirg‘iz– 0,1 |
| Ingliz – 0,4 | ingliz– 0,5 |



## Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni

*(2021- yil, ming kishi)*



| | Jami talabalar | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 6,4 | 3,3 | 3,1 |
| Andijon shahar | 5,3 | 3,0 | 2,3 |
| Andijon tumani | 1,1 | 0,3 | 0,8 |

**Andijon viloyatining oliy ta'lim tashkilotlarini 2021- yilda jami 6,4 ming nafar talabalar bitirdilar. Jami bitiruvchilarning 3,3 ming nafarini ayollar tashkil etdi. 2017- yilga nisbatan bitiruvchilar soni 2,2 ming nafarga yoki 2,9 martaga oshgan.**

**Bitiruvchilarning 5,9 ming nafari ta'limning bakalavriat va qolgan 0,5 ming nafari magistratura bosqichini tamonladilar.**





## Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari soni,

*(2021/2022 -o'quv yili boshiga, ming kishi)*



| | Jami | Ilmiy darajaga ega bo'lganlar | Ilmiy unvonga ega bo'lganlar |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 2,4 | 0,7 | 0,4 |
| Andijon shahar | 2,0 | 0,6 | 0,3 |
| Andijon tumani | 0,4 | 0,1 | 0,1 |



Andijon viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida 2021/2022- o'quv yili boshida jami professor-o'qituvchi xodimlar soni 2,4 ming nafarni tashkil etdi. Ulardan 2,0 ming nafari Andijon shahrida, qolgan 0,4 ming nafari Andijon tumanidagi oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadi

**Ilmiy darajaga ega bo'lganlar**

- Fan doktori — 0,1
- Fan nomzodi — 0,4
- Falsafa doktori — 0,2

**Ilmiy unvonga ega bo'lganlar**

- Professor — 0,1
- Dotsent — 0,3

## Oliy ta’lim tashkilotlarining professor-o‘qituvchi xodimlari soni

*(2021/2022 o‘quv yili boshiga, ming kishi)*




2021/2022 o‘quv yili boshida Andijon viloyatdagi oliy ta’lim tashkilotlarida xizmat qilayotgan jami professor-o‘qituvchi xodimlar soni 2,4 ming nafardan iborat bo‘lib, ular soni 2017/2018 o‘quv yili bilan taqqoslaganda 0,6 ming nafarga, yoki 34,1 foizga ortgan.



## Oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchi xodimlarining gender taqsimoti

*(2021/2022- o‘quv yili boshiga, kishi)*







Andijon viloyatining oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv yili boshiga jami 2350 nafar professor-o‘qituvchi xodimlar xizmat qailmoqdalar. Ulardan 974 nafarini yoki 41,4 % ni ayollar tashkil etadi.

Professor-o‘qituvchi xodimlarning 230 nafari ilmiy darajaga ega bo‘lib, ulardan 11 nafari ayollardan iborat. Ilmiy unvonga ega bo‘lgan jami pedagog-xodimlar soni 124 nafarni tashkil etadi. Ulardan 4 nafari ayollar hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Andijon viloyatining oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan chet ellik talabalar soni

*(2021/2022 -o'quv yili boshiga, kishi)*

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro diplomatik aloqalarni o'rnatib, ular bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan ilm-fan va ta'lim sohasida ham har tomonlama hamkorlik aloqalarini olib bormoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi, hamda ijtimoiy-siyosiy jixatdan yuksalishi bevosita uning bilimli va malakali kadrlari bilan bo'g'liqdir. Bu yo'lda intellektual salohiyati yuksak, bilimdon oliy toifali professional kadrlarni tayorlab berish respublikamizdagi har bir oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'satayotgan pedagog xodimlarining oldidagi muhim vazifalaridan biridir







| | O'zbekiston Respublikasi | Andijon viloyati |
|---|---|---|
| Qabul qilindi | 1176 | 95 |
| Jami talabalar | 2004 | 292 |
| Bitirganlar | 321 | 2 |

## Andijon viloyatining oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olayotgan boshqa davlatlardan kelgan talabalar soni

*(2021/2022 -o‘quv yili boshiga, kishi)*





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:**

Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Телеfon:(74) 224-82-69

www.andstat.uz

andtat@umail.uz

Manzil: Andijon shahar Milliy tiklanish ko'cha-36 a

